

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA HIKOYA JANRIDAGI BADIY MATNLAR ORQALI O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda hikoya janridagi badiiy matnlar orqali o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi haqida fikr yuritiladi. Unda hikoya janridagi matnlar bilan ishlash jarayonidagi metodik yo'nalishlar hamda bosqichlar ko'rsatib beriladi va hikoya janrining o'quvchilar tafakkuri va nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi darslari, badiiy matn, hikoya, o'qish savodxonligini rivojlantirish, metodik yondashuv, matnni o'qish, matnni tahlil qilish.

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ ЧЕРЕЗ ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ТЕКСТЫ В ЖАНРЕ РАССКАЗА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

**Аннотация.** В данной статье рассматривается методика развития читательской грамотности учащихся начальных классов через художественные тексты в жанре рассказа. Показаны методические направления и этапы работы с рассказами, раскрыта роль данного жанра в развитии мышления и речи учащихся.

**Ключевые слова:** начальное образование, уроки читательской грамотности, художественный текст, рассказ, развитие читательской грамотности, методический подход, чтение текста, анализ текста.

**METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' READING LITERACY THROUGH FICTIONAL TEXTS IN THE STORY GENRE IN PRIMARY GRADES**

**Annotation.** This article discusses the methodology for developing reading literacy among primary school students through literary texts in the short story genre. It outlines methodological approaches and stages of working with stories and reveals the importance of this genre in developing students' thinking and speech.

**Keywords:** primary education, reading literacy lessons, literary text, short story, developing reading literacy, methodological approach, text reading, text analysis.

Boshlang'ich ta'lim inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda o'quvchilarda tafakkur, dunyoqarash va axloqiy qadriyatlar shakllanadi. Zero, dunyoqarashi keng, tafakkuri teran shaxs jamiyatda faol o'rin egallaydi, o'z salohiyatini to'la namoyon etadi hamda atrofida insonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shaxsning ayrim xususiyatlari tug'ma bo'lsa-da, ularning ko'pchiligi ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi. Shu boisdan, ta'lim jarayoni jamiyat taraqqiyoti, millat ma'naviy qiyofasini belgilash va yosh avlod tafakkurini boyitishda beqiyos o'ringa ega.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limning eng muhim vazifalaridan biri — o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirish, ularni badiiy matnni anglash, tahlil qilish va mazmunini mustaqil ifodalay olishga o'rgatishdan iborat. Ayniqsa, hikoya janridagi badiiy matnlar orqali o'qish savodxonligini shakllantirish o'quvchilar tafakkuri, nutqi va ma'naviy olamini boyitishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Chunki hikoyalar o'quvchilarning yoshiga yaqin, hayotiyo voqealarga asoslangan, tarbiyaviy g'oya bilan sug'orilgan bo'lib, ular orqali bola o'z hayoti bilan badiiy olam o'rtasidagi bog'liqlikni anglaydi.

Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan asarlar hajm jihatdan ixcham bo'lib, ular orasida hikoya, ertak, masal, she'r, rivoyat, asotir, doston parchalari, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, ilmiy-ommabop maqolalargacha uchraydi. Har bir janrning syujet qurilishi, uslubiy xususiyati, til vositalarining boyligi o'quvchiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli o'qituvchi asarning janriga xos jihatlarni e'tiborga olib, unga mos an'anaviy va innovatsion metodlardan foydalanishi lozim.

Hikoya – hayotdagi muayyan voqeani badiiy umumlashtirish orqali tasvirlovchi kichik hajmli nasriy asardir. Unda inson hayoti, voqealarning mazmuni, qahramonlarning kechinmalari hayotiy asosda yoritiladi. Hikoyaning ixchamligi va voqealar dinamikasi uni boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun eng qulay janrga aylantiradi. Kichik yoshdagi bolalar asosan qahramonlarning xatti-harakatlari, ularning tashqi ko'rinishi yoki muayyan voqealarning rivoji orqali hikoyaga qiziqadilar. Shu bois hikoya o'qitishda syujetni tahlil etish, voqealar ketma-ketligini anglash va qahramonlarning xarakterini ochish muhim metodik vazifa sanaladi.

Boshlang'ich sinf "O'qish savodxonligi" darsliklarida berilgan hikoyalar, jumladan, T.G'oyipovning "Sehrli qalam", S.Ibodinovanning "Suhrobjon va Mikrobyjon" (2-sinf), Z.Ro'ziyevaning "Tez yordam – yordamga shay", Hakim Nazirning "Igna" (3-sinf), Z.Ibrahimovanning "Sayroqi qushcha", Jabbor Razzoqovning "Toshbag'ir", H.Hamdamovanning "Qanot qoqqan orzular" (4-sinf) kabi hikoyalari bolalarni:

- voqealar zanjirini izchil idrok etishga;
- asosiy g'oyani anglashga;
- badiiy obrazlar orqali insoniy fazilatlarni tahlil qilishga o'rgatadi.

Bunday matnlar o'qish savodxonligini faqat "o'qish tezligi" yoki "so'z boyligi" darajasida emas, balki mazmunni chuqur anglash va uni qayta ifoda etish darajasida shakllantirishga yordam beradi.

3–4-sinflarda hikoya janridagi matnlar bilan ishlash jarayonida quyidagi metodik yo'nalishlarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi:

1. O'qishga tayyorgarlik bosqichi.

- Matn nomi, muallifi, sarlavhasi asosida taxmin qilish (PIRLS mezonidagi "predicting" bosqichi).

- Hikoya mavzusi bilan o'quvchining hayotiy tajribasini bog'lash.

- Matn o'qilmasidan oldin motivatsion savollar berish (Masalan: "Sizningcha, mehr nima?", "Qachon so'nggi marta kimdadir yordam so'ragan edingiz?").

2. Matnni o'qish va tahlil qilish bosqichi

- Matnni ifodali o'qish (rollarga bo'lib o'qish, suhbat ko'rinishida o'qish).

- Matnni segmentlarga ajratish, har bir bo'lim uchun sarlavha qo'yish.

- Matn yuzasidan savol-topshiriqlar: kim? qayerda? nima uchun? qanday? kabi.

So'z boyligini kengaytiruvchi ishlanmalar: hikoyadagi so'zlarni sinonim-antonymarlari bilan almashtirish, so'z ma'nosini matnda topish.

3. Matndan keyingi faoliyat bosqichi

- Hikoya mazmunini rejaga solish va bayon yozish.

- Asosiy g'oyani aniqlash va shaxsiy munosabat bildirish.

- Ijodiy topshiriqlar:

1) hikoyani davom ettirish ("Agar hikoya boshqacha tugaganida...");

2) qahramon nomidan xat yozish;

3) hikoya asosida axloqiy xulosa chiqarish.

Bu faoliyatlar o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni, o'z fikrini asosli bayon etish va matnga qayta ishlov berish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Masalan, 3-sinf "O'qish savodxonligi" darsligining 4-qismida joy olgan M. Hamidovanning "Izza", M.Murodovning "Kapalak" kabi hikoyalari mazmunan ham, obrazlar tizimi jihatidan ham o'quvchilarni o'ylashga undaydi. Ushbu asarlar tahlili orqali o'quvchilar hikoya syujeti, qahramonlarning xatti-harakatlari, asardagi badiiy vositalarni aniqlashni o'rganadilar.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi hikoyani o'qitishda an'anaviy o'qish va tahlil usullarini zamonaviy interaktiv metodlar bilan uyg'unlashtirishi lozim. Masalan, "fikrlar klasteri", "aqliy hujum", "rolli o'yin", "badiiy tahlil" kabi texnologiyalar hikoya ustida ishlashda o'quvchilarning faolligini oshiradi.

Shuningdek, hikoyaning qahramonlarini tahlil qilish, syujetdagi sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash o'quvchilarni tanqidiy va mantiqiy fikrlashga o'rgatadi. Hikoya ustida olib borilgan izohli o'qish, qayta hikoyalash, ijodiy bayon va sahnalashtirish turlari o'quvchining nutqiy kompetensiyasini rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinfda hikoyani o'qitish jarayoni bosqichma-bosqich tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir:

- 1) o'quvchilarni hikoyani o'qishga tayyorlash;
- 2) matnni ifodali o'qish yoki eshittirish;
- 3) lug'at ustida ishlash va so'z boyligini kengaytirish;
- 4) syujetni tahlil qilish, qahramonlarga tavsif berish;
- 5) reja tuzish, qayta hikoyalash va bayon yozish;
- 6) asarni sahnalashtirish yoki ijodiy qayta ishlash.

Mazkur bosqichlar o'quvchilarning nafaqat o'qish, balki fikrlash, idrok etish, so'z boyligini oshirish ko'nikmalarini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida hikoya janridagi badiiy matnlar orqali o'qish savodxonligini rivojlantirish – ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omildir. Shuningdek, boshlang'ich sinflarda hikoya janridagi badiiy matnlar orqali o'qish savodxonligini rivojlantirish o'quvchilar tafakkurini faollashtiradi, nutq madaniyatini boyitadi va matnga estetik munosabatni shakllantiradi. Darsda o'quvchining faol ishtiroki, tahlil va ijodiy fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar ta'lim samaradorligini oshiradi. Shunday yondashuv o'qish darslarini zamonaviy metodik asosda tashkil etish uchun muhim omil hisoblanadi.

O'qituvchining mahorati – matnni faqat o'qitish emas, balki o'quvchini o'qish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantira olishidadir. Shuning uchun interfaol, ijodiy va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan hikoya o'qish darslari o'quvchilarning o'qish savodxonligini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019-y.
2. Salayev F., Qurbonniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi.- Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2010. -332 b.
3. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, "Bayoz", 2024.-304 b.
4. Aydarova U.B. O'qish savodxonligi. 2-sinf. II qism. – Toshkent: "Novda edutainment", 2023.- 80 b.
5. Aydarova U.B., Azizova N.K., Toirova M.E. O'qish savodxonligi. 3-sinf. II qism.- Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 80 b.
6. Aydarova U. Azizova N., Toirova M. O'qish savodxonligi. 3-sinf uchun darslik. IV qism. - Toshkent: "Novda Edutainment", 2023.
7. Toirova M.E. O'qish savodxonligi. 4-sinf. I qism.- Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 80 b.